



THE RELATIONSHIP BETWEEN THE RECOGNITION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A LEGAL PERSON AND ITS CRIMINAL LIABILITY

Ibragimova Shahlo

Master's student at Tashkent State Law University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548923>

ARTICLE INFO

Received: 28th October 2025

Accepted: 04th November 2025

Online: 05th November 2025

KEYWORDS

Artificial intelligence, legal personality, criminal liability, legal subjectivity, actus reus, mens rea, electronic person, legal status, international experience, Japanese model, Chinese approach, liability mechanism, ethical and legal problems.

ABSTRACT

This article analyzes the relationship between the recognition of artificial intelligence as a legal person and its criminal liability from a theoretical and practical perspective. The author evaluates the degree of autonomy of artificial intelligence systems, the ability to make informed decisions, and the criteria for freedom of will from the point of view of legal subjectivity. The article comparatively studies the national experiences of Japan, the USA, the European Union, and China, and analyzes the ways of determining the legal status of artificial intelligence based on different legal approaches. According to the results of the study, the legal personality and criminal liability of artificial intelligence have a complementary, systematic and dialectical relationship, and the need to develop international legal standards in this area is substantiated. For Uzbekistan, proposals are put forward on the formation of national legal mechanisms based on the experience of Europe and Japan.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПРИЗНАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРАВОВЫМ ЛИЦОМ И ЕГО УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ

Ибрагимова Шахло

Магистр Ташкентского государственного юридического университета

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548923>

ARTICLE INFO

Received: 28th October 2025

Accepted: 04th November 2025

Online: 05th November 2025

KEYWORDS

Искусственный интеллект, правосубъектность, уголовная ответственность,

ABSTRACT

В данной статье анализируется взаимосвязь признания искусственного интеллекта юридическим лицом и его уголовной ответственности с теоретической и практической точки зрения. Автор оценивает степень автономности систем искусственного интеллекта, способность принимать обоснованные решения и критерии свободы воли



юридическая субъектность, *actus reus*, *mens rea*, электронная личность, правовой статус, международный опыт, японская модель, китайский подход, механизм ответственности, этико-правовые проблемы.

с точки зрения правовой субъектности. В статье проводится сопоставительный анализ национального опыта Японии, США, Европейского Союза и Китая, а также анализируются способы определения правового статуса искусственного интеллекта, основанные на различных правовых подходах. По результатам исследования правосубъектность и уголовная ответственность искусственного интеллекта находятся в взаимодополняющей, системной и диалектической связи, а также обосновывается необходимость разработки международно-правовых стандартов в этой области. Для Узбекистана выдвигаются предложения по формированию национальных правовых механизмов с учетом опыта Европы и Японии.

SUNIY INTELEKTNING HUQUQIY SHAXS SIFATIDA TAN OLINISHI VA UNING JINOIY JAVOBGARLIGI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK

Ibragimova Shahlo

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17548923>

ARTICLE INFO

Received: 28th October 2025
Accepted: 04th November 2025
Online: 05th November 2025

KEYWORDS

Sun'iy intellekt, huquqiy shaxs, jinoiy javobgarlik, huquqiy subyektivlik, actus reus, mens rea, elektron shaxs, huquqiy maqom, xalqaro tajriba, Yaponiya modeli, Xitoy yondashuvi, javobgarlik mexanizmi, etik-huquqiy muammolar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada sun'iy intellektning huquqiy shaxs sifatida tan olinishi masalasi hamda uning jinoiy javobgarligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Muallif tomonidan sun'iy intellekt tizimlarining avtonomlik darajasi, ongli qaror qabul qilish qobiliyati va irodaviy erkinlik mezonlari huquqiy subyektivlik nuqtayi nazaridan baholangan. Maqolada Yaponiya, AQSh, Yevropa Ittifoqi va Xitoyning milliy tajribalari qiyosiy o'rganilib, turli huquqiy yondashuvlar asosida sun'iy intellektning huquqiy maqomini belgilash yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellektning huquqiy shaxsligi va jinoiy javobgarligi bir-birini to'ldiruvchi, tizimli va dialektik munosabatga ega bo'lib, ushbu sohada xalqaro huquqiy standartlar ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan. O'zbekiston uchun esa Yevropa va Yaponiya tajribasi asosida milliy huquqiy mexanizmlarni shakllantirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.



Zamonaviy davrda texnologik taraqqiyotning eng yirik yutug'i sifatida e'tirof etilayotgan sun'iy intellekt inson faoliyatining deyarli barcha jabhalariga kirib kelmoqda. Axborot texnologiyalari, tibbiyot, transport, ta'lim, sud-huquq tizimi, hatto siyosiy boshqaruv sohalarida ham sun'iy intellekt tizimlaridan keng foydalanilmoqda[1]. Biroq ushbu jarayon bilan bir qatorda suniy intellektning huquqiy maqomi, u bilan bog'liq mas'uliyat, javobgarlik va etik me'yorlarni belgilash zarurati ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellektning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati mavjud holatlarda, u tomonidan keltirilgan zarar uchun huquqiy javobgarlik kim zimmasiga yuklanishi masalasi jiddiy muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi kunda xalqaro va milliy huquq tizimlarida sun'iy intellektni huquqiy shaxs sifatida tan olish g'oyasi tobora keng muhokama qilinmoqda. Ayrim olimlar sun'iy intellektni "elektron shaxs" sifatida e'tirof etish zarurligini ilgari surishsa, boshqalar bunday yondashuv inson huquq va erkinliklari konsepsiyasiga zid bo'lishini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, agar sun'iy intellekt mustaqil ravishda huquqiy munosabatlarga kirishish, bitim tuzish yoki jinoiy harakat sodir etish imkoniga ega bo'lsa, uni huquqiy shaxs sifatida tan olish masalasi bevosita uning jinoiy javobgarligi bilan uzviy bog'liqdir.

Mazkur o'zaro bog'liqlikning mohiyati shundaki, huquqiy shaxs maqomi mavjud bo'lmagan subyektga jinoiy javobgarlik yuklab bo'lmaydi. Shu sababli, sun'iy intellektning jinoiy javobgarligini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan avval, uni huquqiy shaxs sifatida e'tirof etishning huquqiy mezonlarini ishlab chiqish zarur. Bu jarayonda sun'iy intellektning irodaviy erkinligi, onglilik darajasi, xatti-harakatlarning oqibatlarini anglash va huquqiy munosabatlarda subyektivlik mezonlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Sun'iy intellekt tizimlarining avtonomligi darajasi ortib borishi bilan ularning qabul qilgan qarorlari va amalga oshirgan harakatlari uchun javobgarlik masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, sun'iy intellektning mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati rivojlanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy oqibatlar va jinoiy javobgarlik masalalari alohida e'tiborga loyiqdir. Bu kontekstda sun'iy intellektning huquqiy shaxs sifatida tan olinishi imkoniyati va uning jinoiy javobgarligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish zamonaviy huquqshunoslik fanining eng muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda [2].

Sun'iy intellektning huquqiy subyekt sifatida tan olinishi masalasi zamonaviy huquq nazariyasining an'anaviy paradigmalari va metodologik yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Klassik huquqiy doktrinada huquqiy shaxs sifatida tan olinishi uchun subyekt ma'lum fundamental xususiyatlarga ega bo'lishi zarur, jumladan: iroda erkinligi, o'z xatti-harakatlarini anglash va ularni boshqarish qobiliyati, shuningdek huquq va majburiyatlarni mustaqil ravishda amalga oshirish imkoniyati [3]. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy subyektlik inson yoki yuridik shaxs kabi ongli va iroda asosidagi faoliyat bilan uzviy bog'langan.

Biroq, zamonaviy texnologik taraqqiyot natijasida shakllanayotgan ilg'or sun'iy intellekt tizimlari bu xususiyatlarning ayrimlarini masalan, mustaqil qaror qabul qilish, o'z faoliyatini ma'lum algoritmik mantiqqa asoslab boshqarish hamda inson ishtirokisiz ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini ma'lum darajada namoyon eta boshlamoqda. Shu bilan birga, ularning mazkur imkoniyatlari huquqiy subyektlikning to'liq shaklini



shakllantirish uchun yetarlimi yoki yo'qligi masalasi hanuzgacha ilmiy va huquqiy munozaralarning markazida turibdi.

Huquqiy shaxsning an'anaviy kontseptsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra, huquqiy tizimda faqat ikki turdagi subyektlarnijismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarni qamrab oladi. Jismoniy shaxs sifatida inson tabiiy ravishda huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi, yuridik shaxs esa insonlar tomonidan tashkil etilgan, lekin o'zi inson bo'lmagan sun'iy subyekt sifatida qonun tomonidan mustaqil huquqiy maqomga ega deb e'tirof etiladi. Huquq nazariyasida yuridik shaxslarning mavjudligi inson bo'lmagan subyektlarga ham huquqiy maqom berish mumkinligini amalda tasdiqlovchi muhim pretsedent sifatida qaraladi.

Shu jihatdan, yuridik shaxs institutining o'zi sun'iy intellektni ham nazariy jihatdan huquqiy subyekt sifatida tan olish imkoniyatini asoslash uchun mantiqiy tayanch vazifasini o'tashi mumkin. Biroq, bu o'xshashlik shartli tusga ega, chunki yuridik shaxslar, oxir-oqibat, insonlar tomonidan boshqariladi, ular faoliyatining mazmuni va oqibatlari uchun esa aynan jismoniy shaxslar muassislar, ishtirokchilar yoki rahbarlar javobgar bo'ladi. Sun'iy intellekt tizimlari esa, buning aksi o'laroq, potentsial ravishda to'liq avtonom harakat qilish, insonning bevosita nazoratisiz qarorlar qabul etish va ularni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin [4].

Natijada, sun'iy intellektni yuridik shaxsga qiyoslash orqali huquqiy shaxs maqomini berish g'oyasi muayyan darajada asosli bo'lsa-da, u huquqiy javobgarlik, iroda va ongli faoliyat kabi fundamental huquqiy kategoriya va prinsiplarning tubdan qayta talqin qilinishini talab etadi.

Yevropa Parlamenti tomonidan 2017-yilda qabul qilingan rezolyutsiyada ilg'or robotlar va sun'iy intellekt tizimlariga nisbatan "elektron shaxs" (electronic personhood) maqomini joriy etish taklifi ilgari surilgan edi [5]. Mazkur tashabbus zamonaviy huquqiy tafakkurda muhim bosqich sifatida baholanib, texnologik subyektlarning huquqiy maqomini aniqlashtirish hamda ular tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni tartibga solish zaruriyatidan kelib chiqqan. Ushbu taklif, bir tomondan, sun'iy intellektning huquqiy subyekt sifatida e'tirof etilishiga yo'l ochuvchi konseptual asos sifatida qaralsa, boshqa tomondan, u amaliy jihatdan bir qator murakkab huquqiy va falsafiy savollarni keltirib chiqardi.

Ko'plab yevropalik va xalqaro huquqshunos olimlar ushbu tashabbusni tanqidiy baholab, sun'iy intellektga huquqiy shaxs maqomini berish hali erta ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, hozirgi bosqichda mavjud sun'iy intellekt tizimlari to'liq avtonom faoliyat yuritish darajasiga yetmagan, chunki ular inson tomonidan yaratilgan algoritmlar asosida ishlaydi hamda inson nazoratidan butunlay holi emas [6]. Shu bois, ularning mustaqil ravishda huquqiy javobgarlikka tortilishi hozircha nazariy ssenariy sifatida qaraladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jinoiy javobgarlik huquqiy javobgarlikning eng qat'iy shakli hisoblanib, u faqat jinoiy qonunchilikda belgilangan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun qo'llaniladi. An'anaviy jinoiy huquq nazariyasiga ko'ra, jinoiy javobgarlik mavjud bo'lishi uchun ikki asosiy element *actus reus* (jinoiy harakat yoki harakatsizlik) va *mens rea*



(aybdorlik yoki jinoiy niyat) mavjud bo'lishi shart. Shu ikki kategoriya insonning ongli va irodaviy faoliyatini ifodalaydi.

Sun'iy intellekt kontekstida esa ushbu elementlarning mavjudligini aniqlash o'ta murakkab muammo sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, bir tomondan, sun'iy intellekt tizimlari inson tomonidan yaratilgan algoritmlar asosida ishlaydi va shuning uchun ularning "niyati" yoki "aybi"ni an'anaviy ma'noda belgilab bo'lmaydi. Boshqa tomondan esa, ularning qaror qabul qilish jarayoni inson tomonidan to'liq nazorat qilinmaydigan avtonom mexanizmlarga tayanadi. Natijada, sun'iy intellektning jinoyat sodir etishdagi ishtiroki masalasida yaratuvchi, foydalanuvchi yoki tizimning o'zjavobgar bo'lishi kerakligi haqidagi savol ochiq qolmoqda.

Birinchidan, sun'iy intellekt tizimi tomonidan amalga oshirilgan harakat *actus reus* sifatida tan olinishi mumkinmi degan savol huquqshunoslar orasida keskin nazariy bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. An'anaviy jinoiy huquq nazariyasida *actus reus* bu inson tomonidan ongli ravishda sodir etilgan, ijtimoiy xavfli oqibatlarga olib keluvchi harakat yoki harakatsizlikni anglatadi. Biroq, agar sun'iy intellekt inson aralashuvisiz mustaqil ravishda muayyan harakatni amalga oshirsa va bu harakat jinoiy oqibatlarga sabab bo'lsa, uni jinoiy harakat sifatida baholash mumkinmi, degan savol ochiq qolmoqda.

Ba'zi olimlar, jumladan texnopravshunoslik sohasidagi tadqiqotchilar, sun'iy intellekt tizimining faoliyati inson tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot va algoritmlar natijasi ekanligini ta'kidlab, bunday holatda sun'iy intellekt "avtonom ijrochi" emas, balki inson tomonidan belgilangan buyruqlarni bajaruvchi vosita sifatida qaralishi lozimligini ilgari suradilar [7]. Ularning fikricha, algoritmik modelning faoliyati irodaviy qarorga emas, balki oldindan belgilangan texnik ko'rsatmalarga asoslanadi, shuning uchun bunday tizimning xatti-harakatlarini huquqiy jihatdan "harakat" deb tasniflash mumkin emas.

Boshqa yondashuv vakillari esa, agar sun'iy intellekt tizimi o'z qarorlarini inson tomonidan to'g'ridan-to'g'ri boshqaruvsiz, ya'ni mustaqil tarzda qabul qilsa va uning xatti-harakati inson uchun oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan natijalarni keltirib chiqarsa, bu faoliyatni *actus reus* sifatida tan olish mumkin deb hisoblaydilar [8]. Bunday holatda sun'iy intellekt nafaqat ijrochi vosita, balki huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiruvchi faol subyekt sifatida qaraladi. Shu sababli, *actus reus* elementining sun'iy intellektga nisbatan qo'llanishi texnik va huquqiy chegaralar o'rtasida noaniq muvozanatda turibdi.

Ikkinchidan, *mens rea* elementi ya'ni jinoiy niyat yoki aybdorlik masalasi bundan ham murakkabroq nazariy va falsafiy muammolarni keltirib chiqaradi. Jinoiy niyat mavjud bo'lishi uchun shaxsda ong, iroda, maqsadga yo'naltirilgan fikrlash hamda o'z harakatining oqibatlarini anglash qobiliyati bo'lishi lozim [9]. Bu element shaxsning ichki ruhiy holatini ifodalaydi va insonning ma'naviy-axloqiy baholash imkoniyatiga tayanadi.

Biroq, hozirgi kunda mavjud bo'lgan hatto eng ilg'or sun'iy intellekt tizimlari ham haqiqiy ma'noda ong, o'z-o'zini anglash yoki ma'naviy refleksiya qobiliyatiga ega emasligi ilmiy hamjamiyat tomonidan keng tan olingan haqiqatdir. Sun'iy intellektning "niyat" yoki "aybdorlik" kabi subyektiv kategoriyalarni shakllantirish imkoniyatlari yo'qligi sababli, uni jinoiy niyat subyektini sifatida baholash hozircha asossiz deb qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, *mens rea* elementining sun'iy intellektga tatbiq etilishi amaliy emas, chunki bu



tizimlar o'z xatti-harakatlarini axloqiy yoki ijtimoiy mezonlar asosida emas, balki faqat algoritmik mantiqqa muvofiq tarzda amalga oshiradi.

Natijada, sun'iy intellektga jinoiy javobgarlik yuklash masalasi nafaqat huquqiy, balki falsafiy va axloqiy jihatdan ham murakkab masalalardan biri bo'lib qolmoqda. U inson va texnologiya o'rtasidagi chegaralarni, shuningdek, javobgarlik tushunchasining o'zini qayta talqin qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Ayrim tadqiqotchilar sun'iy intellekt tizimlariga nisbatan maxsus jinoiy javobgarlik modelini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlamodalar [10]. Ularning fikricha, mavjud jinoiy huquq nazariyasi insonning ongli va irodaviy faoliyatiga asoslanganligi sababli, uni bevosita sun'iy intellektga tatbiq etish mumkin emas. Shu bois, yangi model an'anaviy mens rea (aybdorlik) talabi o'rniga sun'iy intellektning xatti-harakatlari bashorat qilinishi, nazorat qilinishi va ijtimoiy xavfliligi kabi obyektiv mezonlarga asoslanishi kerak.

Mazkur yondashuvda asosiy e'tibor sun'iy intellektning subyektiv holatiga emas, balki uning texnik va ijtimoiy oqibatlariga qaratiladi. Boshqacha aytganda, agar sun'iy intellekt tizimining harakati oldindan bashorat qilib bo'lmas darajada xavf tug'dirsa, inson tomonidan to'liq nazorat qilinmasa yoki jamiyat uchun sezilarli zarar xavfini yuzaga keltirsa, u holda ushbu tizimga (yoki uning ishlab chiquvchisi va foydalanuvchisiga) nisbatan jinoiy javobgarlikning o'ziga xos shakllarini qo'llash mumkin bo'ladi [11]. Bu konsepsiya jinoiy javobgarlikni faqat aybga emas, balki texnologik tizimning xavf keltirish salohiyatiga asoslashni nazarda tutadi.

Shunday qilib, bunday model sun'iy intellektning o'ziga xos tabiatini ya'ni, u inson emasligi, ammo ijtimoiy oqibatlarga ega mustaqil harakatlarni amalga oshirish qobiliyatiga egaligini inobatga olgan holda, jinoiy javobgarlikni yangi formatda shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv sun'iy intellektning texnik xususiyatlarini huquqiy tizim bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi hamda "javobgarlikning inson markazidan chiqib, tizim markaziga o'tishi" g'oyasini ilgari suradi.

Sun'iy intellektning huquqiy shaxs sifatida tan olinishi va uning jinoiy javobgarligi o'rtasida bevosita o'zaro bog'liqlik mavjud. Huquqiy shaxs maqomini belgilash bu subyektning huquq va majburiyatlarning tashuvchisi sifatida e'tirof etish, ya'ni javobgarlikni huquqiy jihatdan rasmiylashtirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish demakdir. Shunday ekan, faqat huquqiy subyekt maqomiga ega bo'lgan tizimgina huquqiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Shu jihatdan, sun'iy intellektning huquqiy shaxs sifatida tan olish g'oyasi jinoiy javobgarlik mexanizmini shakllantirishning konseptual asosini tashkil etadi.

Biroq, bu munosabat ikki yo'nalishda harakat qiladi: bir tomondan, huquqiy shaxs maqomi jinoiy javobgarlikni qo'llash imkonini yaratadi; boshqa tomondan, jinoiy javobgarlikning mavjudligi huquqiy shaxslik kontsepsiyasining amaliy mazmunini to'ldiradi. Ya'ni, agar sun'iy intellekt javobgar bo'lish qobiliyatiga ega bo'lmasa, uni huquqiy shaxs sifatida tan olish ham o'z ma'nosini yo'qotadi. Shu sababli, sun'iy intellektning huquqiy maqomi va javobgarligi o'rtasidagi bog'liqlik o'zaro mustahkam, tizimli va dialektik xarakter kasb etadi.



Agar sun'iy intellekt huquqiy shaxs sifatida tan olinsa, bu avtomatik ravishda uning jinoiy javobgarligini anglatmaydi. Masalan, yuridik shaxslar huquqiy shaxs hisoblanadi, lekin ularning jinoiy javobgarligi cheklangan va maxsus qoidalarga bo'ysunadi. Ko'plab mamlakatlarda yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi faqat ma'lum turdagi jinoyatlar uchun qo'llaniladi va asosan moliyaviy jazolar shaklida amalga oshiriladi.

Sun'iy intellekt uchun huquqiy shaxs maqomini belgilashda uning avtonomlik darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qanchalik sun'iy intellekt avtonom bo'lsa, shunchalik uning mustaqil huquqiy subyektligini tan olish asoslari kuchayadi. Biroq, to'liq avtonomlik jinoiy javobgarlik masalasini yanada murakkablashtiradi, chunki bu holda an'anaviy javobgarlik zanjiri uziladi va yangi javobgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi.

Huquqiy shaxslik va jinoiy javobgarlik o'rtasidagi munosabat ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, huquqiy shaxslik jinoiy javobgarlikni qo'llash uchun zarur asos yaratadi. Ikkinchi tomondan, jinoiy javobgarlikni samarali qo'llash imkoniyati huquqiy shaxslik kontseptsiyasining funktsionalligini ta'minlaydi [12]. Bu o'zaro bog'liqlik sun'iy intellekt uchun maxsus huquqiy rejim ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Turli mamlakatlar sun'iy intellektning huquqiy maqomini belgilash masalasiga turlicha yondashuvlarni qo'llamoqda. Bu jarayon har bir davlatning huquqiy tizimi, ijtimoiy-falsafiy qadriyatlarini hamda texnologik rivojlanish darajasiga qarab shakllanmoqda. Shu bois, sun'iy intellektning huquqiy shaxs sifatida e'tirof etilishi yoki unga nisbatan javobgarlik mexanizmlarini belgilash borasida yagona xalqaro standart hozircha mavjud emas.

Yaponiya mazkur sohada eng ilg'or davlatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu mamlakatda robototexnika va sun'iy intellektning huquqiy maqomini tartibga solishga qaratilgan maxsus normativ konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Yapon huquq tizimida robotlar va intellektual tizimlarga ma'lum darajada "huquq va majburiyatlar" yuklash, ularning harakatlari uchun mas'uliyat mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilgan. Masalan, "Robot qonunchiligi" (Robot Law) loyihasida robotlarning jamiyatdagi xatti-harakatlari, foydalanuvchilarning xavfsizligi va zarar yetkazish holatlaridagi javobgarlik choralari batafsil tartibga solingan. Bu tajriba sun'iy intellektni huquqiy subyekt sifatida tan olish yo'lida bosqichma-bosqich evolyutsion yondashuvni ifodalaydi. Yapon modeli, asosan, "etika-huquq" sintezi asosida qurilgan bo'lib, unda texnologik tizimlarning ijtimoiy moslashuvini huquqiy normalar bilan uyg'unlashtirish maqsad qilingan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida esa sun'iy intellektning huquqiy maqomi masalasi ko'proq pragmatik va amaliy nuqtai nazardan baholanadi. AQShda sun'iy intellektni mustaqil huquqiy shaxs sifatida tan olishga ehtiyotkorlik bilan yondashiladi. Xususan, AQSh sudlari intellektual mulk sohasida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar muallifligini tan olishni rad etib kelmoqda. AQSh Patent va mualliflik huquqi idoralari pozitsiyasiga ko'ra, "muallif" yoki "yaratuvchi" faqat inson bo'lishi mumkin, chunki ijodiy faoliyat ongli niyat va individual yaratuvchanlikni talab etadi. Shu tariqa, AQSh yondashuvi sun'iy intellektning to'liq huquqiy subyekt sifatida tan olinishiga nisbatan antropotsentrik (inson markazidagi) pozitsiyani aks ettiradi. Bunda sun'iy intellekt texnologik vosita, inson esa yakuniy javobgar subyekt sifatida qaraladi.



Yevropa Ittifoqi esa ushbu masalaga institutsional va tizimli yondashuv asosida qaramoqda. 2021-yilda Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan Sun'iy intellekt to'g'risidagi Nizom (AI Act) sun'iy intellekt tizimlarini ularning xavf darajasiga ko'ra to'rt toifaga ajratadi: yuqori xavfli, cheklangan xavfli, minimal xavfli va taqiqlangan tizimlar. Ushbu hujjat sun'iy intellektni bevosita "huquqiy shaxs" sifatida tan olmasa-da, uning xatti-harakatlari, xavfsizlik talablari va javobgarlik choralarini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun mustahkam institutsional asos yaratadi. Ayniqsa, yuqori xavfli tizimlar uchun ishlab chiquvchi va foydalanuvchi mas'uliyatini belgilash mexanizmlari, shuningdek, texnik nazorat va audit tizimlari bu sohada muhim yangilik bo'ldi.

Shu tarzda, Yaponiya, AQSh va Yevropa Ittifoqining yondashuvlari o'rtasidagi asosiy farq shundaki, Yaponiyada sun'iy intellektga huquqiy maqom berish yo'nalishida progressiv va ijtimoiy-huquqiy eksperimentlar amalga oshirilayotgan bo'lsa, AQSh bu masalaga ehtiyotkorlik bilan, amaliy xavf va foyda nisbatini inobatga olgan holda yondashmoqda. Yevropa Ittifoqi esa huquqiy tizimni moslashtirish orqali sun'iy intellekt bilan bog'liq javobgarlikni differensial tarzda tartibga solishga intilmoqda.

Mazkur yondashuvlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektning huquqiy shaxs sifatida tan olinishi g'oyasi universal yechimga ega emas; aksincha, u har bir davlatning ijtimoiy, madaniy va huquqiy kontekstiga moslashgan shaklda rivojlanmoqda. Shu sababli, O'zbekiston singari rivojlanayotgan huquqiy tizimlar uchun xorijiy tajriba, ayniqsa Yevropa va Yaponiya modellari, sun'iy intellektning huquqiy maqomini shakllantirishda konseptual yo'nalish sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xitoy Xalq Respublikasi sun'iy intellekt sohasida global miqyosda yetakchilikka intilayotgan davlatlardan biri sifatida bu yo'nalishda nafaqat texnologik, balki huquqiy asoslarni ham tizimli ravishda shakllantirmoqda [13]. Xitoy hukumati 2017-yilda qabul qilgan "Sun'iy intellektni rivojlantirishning milliy strategiyasi"da ushbu sohani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Mazkur strategiyada sun'iy intellekt tizimlarining xavfsizligi, ishonchliligi va axloqiy nazorati masalalari alohida o'rin egallaydi.

Xitoy yondashuvi, mohiyatan, innovatsion taraqqiyot bilan qat'iy davlat nazoratini uyg'unlashtirish tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni, davlat bir tomondan sun'iy intellekt texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishini rag'batlantirsa, boshqa tomondan, ularning xavfli yoki nazoratsiz qo'llanishining oldini olish maqsadida qat'iy me'yoriy nazoratni yo'lga qo'yadi. Shu munosabat bilan Xitoy qonunchiligida sun'iy intellekt tizimlarining ishlab chiqilishi, testdan o'tkazilishi va amaliyotga tatbiq etilishida javobgarlik, shaffoflik va axloqiy me'yorlarga rioya qilish talablari huquqiy darajada mustahkamlangan.

Xitoy modeli o'ziga xos jihatdan "nazorat ostidagi innovatsiya" (controlled innovation) kontseptsiyasiga asoslanadi. Bunda sun'iy intellektning huquqiy maqomini aniqlashdan ko'ra, uning ijtimoiy xavfsizlik va milliy manfaatlar doirasida boshqarilishi birlamchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois Xitoyda sun'iy intellektni huquqiy shaxs sifatida tan olish masalasi hozircha muhokama bosqichida bo'lib, amaliy jihatdan esa javobgarlikni tizimni yaratgan yoki nazorat qilayotgan inson va tashkilotlar zimmasiga yuklash printsiipi amal qiladi.



Shu nuqtayi nazardan, Xitoy tajribasi Yaponiya va Yevropa Ittifoqi modellaridan farqli o'laroq, davlat markaziy roliga asoslangan huquqiy tizimni ifodalaydi. U erkin bozor mexanizmlariga emas, balki davlat tomonidan boshqariladigan me'yoriy siyosatga tayanadi. Bu esa sun'iy intellekt sohasida huquqiy tartib va xavfsizlikni innovatsiyadan ustun qo'yuvchi yondashuv sifatida baholanadi.

Xitoyning bunday tajribasi, bir tomondan, sun'iy intellektning nazoratsiz rivojlanishidan kelib chiqadigan ijtimoiy xavflarni kamaytirishga qaratilgan bo'lsa, boshqa tomondan, bu model sun'iy intellektni huquqiy shaxs sifatida tan olishdan avval uni axloqiy va xavfsizlik mezonlari orqali tartibga solish zarurligini amaliy jihatdan ko'rsatib beradi.

Sun'iy intellektning jinoiy javobgarligini amalga oshirish uchun an'anaviy jazo turlarini qayta ko'rib chiqish zarur. Ozodlikdan mahrum qilish yoki jarimalar kabi an'anaviy jazolar sun'iy intellektga nisbatan samarasiz bo'lishi mumkin [14]. Shu sababli, sun'iy intellekt uchun maxsus jazo va ta'sir choralari ishlab chiqilmoqda.

Taklif qilinayotgan mexanizmlardan biri sun'iy intellekt tizimini o'chirish yoki uning faoliyatini to'xtatishdir. Bu o'lim jazosiga o'xshash eng qat'iy chora bo'lib, faqat eng og'ir jinoyatlar uchun qo'llanilishi mumkin. Boshqa variant - sun'iy intellektning dasturiy ta'minotini o'zgartirish yoki qayta dasturlash, bu rehabilitatsiya va qayta tarbiyalashga o'xshaydi [15]. Bundan tashqari, sun'iy intellektning faoliyat doirasini cheklash, ma'lum funksiyalardan mahrum qilish yoki nazoratni kuchaytirish kabi choralar ham ko'rib chiqilmoqda.

Moliyaviy javobgarlik mexanizmlari ham ishlab chiqilmoqda. Sun'iy intellekt tizimlarini sug'urtalash, maxsus fondlar tashkil etish va zararni qoplash mexanizmlari sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya to'lashni ta'minlaydi [16]. Bu yondashuv ayniqsa avtonom transport vositalari va tibbiy sun'iy intellekt tizimlari uchun dolzarbdir.

Jinoiy javobgarlikni taqsimlash modellari ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zi olimlar sun'iy intellekt, uning ishlab chiquvchilari, egasi va foydalanuvchilari o'rtasida javobgarlikni taqsimlash kerakligini ta'kidlaydilar. Bu model har bir tomon o'z hissasi va nazorat darajasiga mos ravishda javobgar bo'lishini nazarda tutadi. Boshqa yondashuv sun'iy intellektni vositachi sifatida ko'rib, asosiy javobgarlikni inson tomonlariga yuklaydi.

Sun'iy intellektning huquqiy shaxsligi va jinoiy javobgarligi masalasi chuqur etik va falsafiy savollarni tug'diradi. Ong, erkin iroda, ma'naviy javobgarlik kabi fundamental kontseptsiyalar sun'iy intellekt kontekstida qayta baholanishi kerak. Agar sun'iy intellekt ongga ega bo'lmasa, uni jinoiy javobgarlikka tortish axloqiy jihatdan asoslidmi? Bu savol nafaqat huquqiy, balki falsafiy munozaralarni ham keltirib chiqaradi.

Utilitarizm nuqtai nazaridan, sun'iy intellektning jinoiy javobgarligi jamiyat xavfsizligini ta'minlash va kelajakdagi jinoyatlarni oldini olish uchun foydali bo'lishi mumkin. Agar sun'iy intellektni javobgarlikka tortish xavfli xatti-harakatlarni kamaytirsam va umumiy farovonlikni oshirsam, bu axloqiy jihatdan oqlanadi. Deontologik yondashuv esa sun'iy intellektning ma'naviy maqomiga e'tibor qaratib, faqat axloqiy agentlarga jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligini ta'kidlaydi.



Sun'iy intellektga huquqiy shaxs maqomini berish inson qadr-qimmatiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi xavotirlar ham mavjud [17]. Agar mashinalar insonlar bilan teng huquqlarga ega bo'lsa, bu inson hayotining o'ziga xos qiymatini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, boshqa fikrga ko'ra, sun'iy intellektni huquqiy tan olish insoniyatning axloqiy rivojlanishining keyingi bosqichi bo'lib, yanada inklyuziv va adolatli jamiyat yaratishga yordam beradi [18].

Sun'iy intellekt texnologiyalari rivojlanishining tezligi huquqiy tizimning moslashish qobiliyatidan oshib ketmoqda. Kvant hisoblash, neyromorf arxitektura va umumiy sun'iy intellekt (AGI) kabi yangi texnologiyalar yaqin kelajakda sun'iy intellektning imkoniyatlarini tubdan o'zgartirishi mumkin. Bu o'zgarishlar huquqiy shaxslik va jinoiy javobgarlik masalalarini yanada dolzarb qiladi.

Xalqaro hamkorlik sun'iy intellektning huquqiy maqomini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) va boshqa xalqaro tashkilotlar sun'iy intellekt bo'yicha global standartlar va tamoyillarni ishlab chiqishda faol ishtirok etmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar sun'iy intellektning huquqiy maqomi bo'yicha xalqaro konsensusga erishishga yordam berishi mumkin.

Milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar taklif etiladi: birinchidan, sun'iy intellekt tizimlarini tasniflab, har bir toifa uchun alohida huquqiy rejim belgilash; ikkinchidan, sun'iy intellektning avtonomlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish; uchinchidan, sun'iy intellekt bilan bog'liq javobgarlikni taqsimlash mexanizmlarini yaratish; to'rtinchidan, sun'iy intellekt uchun maxsus sug'urta va kompensatsiya tizimlarini joriy etish.

Tadqiqot va rivojlanish sohasida sun'iy intellektning xavfsizligi va ishonchliligini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Tushuntirilishi mumkin bo'lgan sun'iy intellekt (Explainable AI) texnologiyalarini rivojlantirish sun'iy intellektning qaror qabul qilish jarayonini shaffof qilishga yordam beradi. Bu esa jinoiy javobgarlikni belgilashda muhim ahamiyatga ega, chunki sun'iy intellektning harakatlarini tushunish va baholash imkoniyatini beradi.

Sun'iy intellektning huquqiy shaxs sifatida tan olinishi va uning jinoiy javobgarligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik zamonaviy huquqshunoslikning eng murakkab va dolzarb masalalaridan biridir. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin: sun'iy intellektning huquqiy shaxsliги uning avtonomlik darajasiga bog'liq bo'lib, to'liq avtonomlikka erishilganda huquqiy subyektlilikni tan olish zaruriyati tug'iladi; jinoiy javobgarlikni qo'llash uchun an'anaviy mens rea kontseptsiyasini qayta ko'rib chiqish va sun'iy intellektga moslashtirilgan yangi mezonlarni ishlab chiqish kerak; huquqiy shaxslik va jinoiy javobgarlik o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisiz to'liq amalga oshirilmaydi.

Sun'iy intellekt uchun maxsus huquqiy rejim yaratish texnologik rivojlanish bilan huquqiy himoyani muvozanatlash imkonini beradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlar bu masalaga turlicha yondashsalar-da, sun'iy intellektning huquqiy maqomini tartibga solish zarurligi umumiy tan olinmoqda. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari yanada rivojlanishi bilan uning huquqiy shaxsliги va jinoiy javobgarligi



masalalari yanada dolzarb bo'lib, huquqiy tizimning tubdan isloh qilinishini talab qilishi mumkin.

References:

1. Russell, Stuart and Peter Norvig. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. Boston: Pearson, 2020. 45-67. // available at: https://lib.ysu.am/disciplines_bk/efdd4d1d4c2087fe1cbe03d9ced67f34.pdf
2. Solum, Lawrence B., Legal Personhood for Artificial Intelligences. North Carolina Law Review, Vol. 70, p. 1231, 1992, Illinois Public Law Research Paper No. 09-13, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=1108671>
3. Kurki, Visa, A Theory of Legal Personhood (August 13, 2019). A Theory of Legal Personhood (Oxford University Press 2019), Helsinki Legal Studies Research Paper No. 58 (2019), Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3446600>
4. Bayern, Shawn J., The Implications of Modern Business-Entity Law for the Regulation of Autonomous Systems (October 31, 2015). 19 Stanford Technology Law Review 93 (2015), FSU College of Law, Public Law Research Paper No. 797, FSU College of Law, Law, Business & Economics Paper No. 797, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2758222>
5. The official website: European Parliament. European Parliament resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on Civil Law Rules on Robotics. February 16, 2017. Available at: https://www.europarl.europa.eu/doceo/document/TA-8-2017-0051_EN.html [accessed on: 21.10.2025].
6. Pagallo, Ugo. The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts. Dordrecht: Springer, 2013. 89-112.
7. Hallevy, Gabriel (2010) The Criminal Liability of Artificial Intelligence Entities - from Science Fiction to Legal Social Control, Akron Intellectual Property Journal: Vol. 4 Iss. 2 Article 1. Available at: <https://ideaexchange.uakron.edu/akronintellectualproperty/vol4/iss2/1>
8. Abbott, Ryan Benjamin, The Reasonable Computer: Disrupting the Paradigm of Tort Liability (November 29, 2016). George Washington Law Review, Vol. 86, No. 1, 2018, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2877380> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2877380>.
9. Duff, Antony. Answering for Crime: Responsibility and Liability in the Criminal Law. Oxford: Hart Publishing, 2007. 23-45.
10. Diamantis, Mihailis, The Extended Corporate Mind: When Corporations Use AI to Break the Law (July 18, 2019). 97 N.C. L. Rev. 893 (2020), Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3422429> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3422429>
11. King, Thomas and Aggarwal, Nikita and Taddeo, Mariarosaria and Floridi, Luciano, Artificial Intelligence Crime: An Interdisciplinary Analysis of Foreseeable Threats and Solutions (May 22, 2018). 26 Science and Engineering Ethics 89 (2020) (published version available at <https://link.springer.com/article/10.1007/s11948-018-00081-0>), Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3183238> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3183238>



12. Teubner, Gunther, Rights of Non-Humans? Electronic Agents and Animals as New Actors in Politics and Law (2006). *Journal of Law and Society*, Vol. 33, pp. 497-521, 2006, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=892962>
13. Roberts, Huw and Cowls, Josh and Morley, Jessica and Taddeo, Mariarosaria and Wang, Vincent and Floridi, Luciano, The Chinese Approach to Artificial Intelligence: an Analysis of Policy, Ethics, and Regulation (September 1, 2019). Roberts, H., Cowls, J., Morley, J. et al. The Chinese approach to artificial intelligence: an analysis of policy, ethics, and regulation. *AI & Soc* 36, 59–77 (2021). <https://doi.org/10.1007/s00146-020-00992-2>, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3469784> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.3469784>
14. Gless, Sabine and Silverman, Emily and Weigend, Thomas, If Robots Cause Harm, Who Is to Blame? Self-Driving Cars and Criminal Liability (January 29, 2016). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2724592> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2724592>
15. Danaher, John. Robots, Law and the Retribution Gap. *Ethics and Information Technology* 18, no. 4 (2016): 299-309.
16. Scherer, Matthew U., Regulating Artificial Intelligence Systems: Risks, Challenges, Competencies, and Strategies (May 30, 2015). *Harvard Journal of Law & Technology*, Vol. 29, No. 2, Spring 2016, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2609777> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2609777>
17. Bryson, Joanna and Diamantis, Mihailis and Grant, Thomas D., Of, for, and by the People: The Legal Lacuna of Synthetic Persons (September 8, 2017). *25 Artificial Intelligence & L*. 273 (2017), Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3068082>
18. Coeckelbergh, Mark. Robot Rights? Towards a Social-Relational Justification of Moral Consideration. *Ethics and Information Technology* 12, no. 3 (2010): 209-221.